

7

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**MAKTABGACHA TA'LIMDA
MUSIQA O'QITISH METODIKASI**

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi:

110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

60111300-Musiqa ta'limi

Fan/modul kodi MTMO'M 105	O'quv yili 2023-2024	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars soatlari 4	Jami yuklama (soat)
1.	Fanning nomi	60	90	150
	Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi			
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – umumiy musiqiy ta'lim va tarbiya nazariya va metodikasini; musiqiy ta'limdagi zamonaviy texnologiya va metodlarni; musiqiy ta'lim va tarbiyani rivojlanishida zamonaviy, ilmiy, metodik ishlanmalarni tayyorlashni; taraqqiy etgan mamlakatlar ta'lim tizimini; shaxs madaniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; musiqiy ta'lim bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni; zamonaviy musiqiy pedagogik printsiplar bo'yicha musiqa mashg'ulotlarni rejalashtirishni va olib borishni; amaliyotda musiqa pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash usullari, xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - musiqa mashg'uloti mazmunining analiy maqsad va vazifalarini singdirib borish; atoqli kompozitorlarning ijodini, ijodiy nafosatni, asosiy asarlarini o'rganish; asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish va asarni tinglab taxlil eta olish; kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tegishli axborotlarni mustaqil tanlash va amaliyotga joriy etish musiqa darslarining barcha shakllarini amalda qo'llash; musiqiy pedagogik ish faoliyatida umumiy, kasbiy maxsus bilim malaka, ko'nikmalariga ega bo'lish.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. MTMda musiqaning san'at turi sifatidagi ahamiyati. Musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifalari. Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyachining o'rni. Musiqa rahbarining ma'naviy axloqiy qiyofasi va unga qo'yilgan talablar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasining maqsadi, vazifalari, o'rni, ahamiyati, bajariladigan ishlar, musiqa raxbariga qo'yilgan talablar va vazifalar, tarbiyachining vazifalari xaqida ma'lumotlar yoritiladi.</p> <p>2-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaviylikni tuzilishi. MTMda bolalarning kundalik hayotida musiqa. Bolalarning mustaqil musiqa faoliyatilari va ularni kelib chiqish manbalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviylikning tuzilishi, kelib chiqish manbalari, kundalik xayotidagi o'rni va musiqaviylikning rivojlantirishda,</p>			

<p>mustaqil musiqa faoliyatilari va ularni kelib chiqish manbalarini yaratishda musiqa raxbarining va tarbiyachining o'zni va vazifalari haqida ma'lumotlar yoritiladi</p>	
<p>3-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'uloti faoliyatlari va ularning turlari.</p> <p>MTMda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlarining faoliyatilari, musiqa mashg'ulotining turlari va olib boriladigan tarbiyaviy ishlar haqida ma'lumotlar beriladi.</p>	
<p>4-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatilari.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqiy faoliyatlar: musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatilari haqida ularni o'rganish usul va uslublari haqida ma'lumotlar yoritiladi</p>	
<p>5-mavzu. Qo'shiq kuylash musiqa faoliyatining asosiy turi.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan, musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqiy faoliyat: qo'shiq kuylash faoliyati haqida, ularni o'rganish usul va uslublari haqida ma'lumotlar yoritiladi.</p>	
<p>6-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ritmik xarakatlar faoliyati turi.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqiy faoliyat: musiqiy ritmik xarakatlar faoliyati haqida ularni o'rganish usul va uslublari haqida ma'lumotlar yoritiladi</p>	
<p>7-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa cholg'ularida ijro – musiqa faoliyati turi.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqiy faoliyat: musiqa cholg'ularida ijro faoliyati haqida ularni o'rganish usul va uslublari haqida ma'lumotlar yoritiladi</p>	
<p>8-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy didaktik o'yinlar. Ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarini musiqa ostida o'tishda tarbiyachining vazifalari.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan didaktik o'yinlar, musiqa va jismoniy tarbiya, ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarini musiqa ostida o'tkazishda musiqa rahbari hamda tarbiyachilarning o'z va vazifalari haqida ma'lumotlar yoritiladi</p>	
<p>9-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'ngil ochish soatlarini tashkil qilish.</p> <p>MTMda tashkil etiladigan ko'ngil ochish soatlarini, bayram ertaliklarini tashkil qilishni tarbiyaviy axamiyati va MTM rahbari, musiqa rahbari hamda</p>	

tarbiyachilarning oqimi va vazifalari haqida ma'lumotlar yoritiladi

10-mavzu. MTMda tarbiyalanuvchilariga musiqiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda musiqa rahbarining ish xujjatlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqa mashg'ulotlarini tashkil qilishda musiqa rahbari yuritadigan ish xujjatlarida DTSda belgilangan talablarga rioya qilish, barcha musiqiy ta'lim jarayonlarini namunali qilib tashkillashtirish xaqida ma'lumotlar yoritiladi

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Talabalar fanni puxta o'zlashtirishi uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot mavzulariga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalar tanlanadi. Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhda a'lohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol interfaol usullarda, musiqiy cholg'ular bilan jihozlangan auditoriyalarda amaliy olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Musiqiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda musiqa rahbarining ish xujjatlari yuritilishi va tartibi.
2. Bolalarda qo'shiq kuylash qobiliyatini rivojlantirishda foydalaniladiga uslub va usullar.
3. Bolalarda musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishda foydalaniladiga uslub va usullar.
4. Bolalarda musiqiy ritmik xarakatlar faoliyatini rivojlantirishda foydalaniladiga uslub va usullar..
5. Bolalarda musiqa cholg'ularida ijtiro faoliyatini rivojlantirish yo'llari.
6. Ko'ngil ochish soatlarini tashkillashtirish va ssenariylar yaratish.
7. Maktabgacha ta'lim muassasasida musiqaviy didaktik o'yinlar tashkil etish.
8. Musiqa va jismoniy tarbiya faoliyatlarini tashkil etish..
9. Ertalabki badantarbiya mashg'ulotini musiqa ostida o'tkazilishini tashkil etish..
10. Musiqa bayram ertaliklarini tashkillashtirish va ssenariylar yaratish.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Bo'lajak musiqa rahbarining cholg'u ijrochiligi (fortepiano, rubob, dutor) fanidan nota matnini xatosiz o'qib ijro etish, kuylash va asarni tahlil qilish. estetik didimi, nafasotini shakllantirish, metodik uslub bilan mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

4. Bolajon dasturi.T. 2010	
5. Raximov H "O'zbekiston Vatanim manim" T.1998	
6. Norxojayev N "O'zbekiston Vatanim manim" T1999	
7. Sharipova G "Musika o'qitish metodikasi va maktab repertuari" T 2006	
8. Raximov H va boshqalar "O'zbekiston Vatanim manim" 1- kitob T.1997	
9. Raximov H va boshqalar "O'zbekiston Vatanim manim" 2-kitob T.1998	
10. Raximov H va boshqalar "O'zbekiston Vatanim manim" 3-kitob T.1999	
11. Raximov H va boshqalar "O'zbekiston Vatanim manim" T.2000	
XI.Axborot manbalari:	
1. https://lib.cspu.uz/	
2. https://pedagog.uz/	
3. www.ziyounet.uz	
4. www.edu.uz	
7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan	
8. Fan/modul uchun ma'sul: Sh.R. Mahkamova. - CHDPU "Musika ta'limi" kafedrasi mudiri, dotsenti. M.M.Xalilova- CHDPU "Musika ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi.	
9. Taqrizchilar: J.E.Usarov- Pedagogika fanlari doktori, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti dekani. A.Q. Lutfullaev-TDPU "Musika madaniyati" fakulteti dekani, professor.	

1."O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi" A.Oripov she'ri, M.Burhonov musiqasi	
"Vatanjonim-vatanim" P.Mo'min she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.	
2."Andijon polkasi" Xalq kuyi.	
"Olma" P.Mo'min she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.	
3."Dilxiroj" o'zbek xalq kuyi	
"Salom bergan bolalar" P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jaev musiqasi.	
4."Yurish marshi" F.Nazarov musikasi.	
"Marsh" D.Omonullaeva musiqasi	
5."Bug'doy" R.Tolib she'ri, D.Omonullaeva musiqasi	
"Vatanjonim-vatanim" P.Mo'min she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.	
6."Qari-Navo" o'zbek halq kuyi.	
"Archa bayram" P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jaev musiqasi	
7."Norim-norim" o'zbek xalq kuyi.	
"Birinch qor" R.Tolib she'ri. N.Norxo'jaev musiqasi	
8."Buvijonim" Yu.Suyunov she'ri. D.Omonullaeva musiqasi	
"Chertmak" Xalq kuyi.	
9."Diloromning qo'shig'i" D.Omonullaeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.	
"Do'loncha" o'zbek xalq kuyi	
10."Nevaralar qo'shig'i" S.Barmoev she'ri. N.Norxo'jaev musiqasi.	
"Aziz bo'ston O'zbekiston" D.Omonullaeva musiqasi, S.Mirzo she'ri.	
V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar	
Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.	
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:	
1."Anjir" D.Omonullaeva musiqasi, P.Mo'min she'ri	
2."Lavlagi" P.Mo'min she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.	
3."Kuz" N.Ro "zimuxamedov she'ri S.Abramova musiqasi.	
4."Jo'jalar" D.Omonullaeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.	
5."Gullar vals" P.Chaykovskiy musiqasi.	
6."Kapalak" P.Mo'min she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.	
7."Navbahor" N.Narzullayev she'ri, G.Qo'chqorova musiqasi.	
8."Qichqir xo'rozim" xalq qo'shig'i.	
9."Shodiyona" F. Alimov musiqasi.	

10. "Oq terekmi, ko'k terek?" X. Qayumov she'ri, A. Mansurov musiqasi	
11. "Qadim turon" P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jaev musiqasi.	
12. "Kitobim qo'limda" P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jaev musiqasi.	
13. "Sog'lom avlod qo'shig'i" S. Barnoev she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.	
14. "Bolalik" Dilnur she'ri, X. Hasanova musiqasi.	
15. "Dovyraklar kerak" P. Mo'min she'ri, A. Mansurov musiqasi.	
16. "Sumalak" A. Obidjon she'ri, X. Hasanova musiqasi.	
17. "O'zbekiston- abadiy bahorim" R. Tolib she'ri, N. Norxo'jaev musiqasi.	
18. "Qay dostonidin aytayin" Baxshi termasi.	
19. "Tinchlik bo'lsin" H. Axmedova she'ri, X. Hasanova musiqasi.	
20. "Keng turkiston" P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jaev musiqasi.	
21. "Vatanginam" P. Mo'min she'ri, A. Mansurov musiqasi.	
22. "Sumalak" T. Bahromov she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.	
23. "Kim epcilu kim chaqqon" A. Mansurov musiqasi, A. Obidjon she'ri.	
24. "Bolalarning ko'zlarini" Q. Ota she'ri, M. Otajonov musiqasi.	
25. "Oppoq qish ey, oppoq qish" P. Mo'min she'ri, A. Varelax musiqasi	
26. "Oymomajon rom bo'ldi" A. Mansurov musiqasi, Q. Muxammadiy she'ri.	
27. "Quyosh bilan subbat" A. Mansurov musiqasi, X. Qayum she'ri.	
28. "Gullar" Fotima va Zuhra Ziyomuxamedovalar so'zi va musiqasi.	
29. "O'zbekiston-onajon" Qambar Ota she'ri, M. Otajonov musiqasi.	
30. "O'zbekimdan aylanay" D. A'zamova she'ri, G. Qo'chqorova musiqasi.	

3.

VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartidagi malakaviy tavsifga muvofiq ishlab chiqiladi va quyidagicha bayon etiladi.

"Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi" fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr «Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr - umumiy musiqiy ta'lim va tarbiya nazariya va metodikasini; musiqiy ta'limdagi zamonaviy texnologiya va metodlarini; musiqiy ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy, ilmiy, metodik ishlanmalarni tayyorlashni; taraqqiyot etgan mamlakatlar ta'lim tizimini; shaxs madaniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; musiqiy ta'lim bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni; zamonaviy musiqiy pedagogik printsiplar bo'yicha musiqa mashg'ulotlarni rejalashtirishni va olib borishni; amaliyotda musiqa pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash usullarini bilishi, tasavvurga ega bo'lishi;

- musiqa mashg'uloti mazmunining amaliy maqsad va vazifalarini singdirib borish; atqoli kompozitorlarning ijodini, ijodiy nafosatini, asosiy asarlarini o'rganish; musiqa asarlarini ijro eta olish va asarni tinglab taxlil eta olish; kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tegishli axborotlarni mustaqil tanlash va amaliyotga joriy etish musiqa darslarining barcha shakllarini amalda qo'llash; musiqiy pedagogik ish faoliyatida umumiy, kasbiy maxsus bilim malaka, ko'nikmalari ega bo'lish kerak;

- Har bir guruh bolalarining yoshiga mos ravishda musiqa o'qitish metodlarini va usullarini tanlash; bolalarining bilimi va ijrochilik malakalarini baholash; musiqa mashg'ulotlarida tarbiyaviy ishlarni olib borish; musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasining pedagogika fanlari sirasiga kirishi; o'qitish nazariyasi va metodika tushunchasining mohiyati; jamoa bo'lib kuylashni o'rgatish metodlari; musiqiy ritmik faoliyat; bolalarda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini rivojlantirish; musiqiy tarbiya asoslarini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat, mustaqil ta'lim shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.

IX. Asosiy adabiyotlar

1.	G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeveva. Musiqa o'qitish nazariyasi Metodikasi va maktab repertuari. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T-2014
2.	G.M.Sharipova, Z.L.Xodjayeveva "Musiqa o'qitish metodikasi" T 2020
3.	I.Akbarov "Musiqa lig'ati" Toshkent. O'qituvchi 1997
4.	Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.T. O'qituvchi, 1993.
5.	Yusupova N. Musiqa savodi va ritmika.T. Musiqa, 2010

X. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.T. Ilm-ziyo,2006.
2. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T. Tafakkur bo'stoni, 2013.
3. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika, T. TDPU, 2013